



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2025  
1-сон



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 1-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир**

**ўринбосари:**

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

А.Х.Мингбоев

**Техник муҳаррир:**

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба  
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида  
тарқатилади.**

**Тахририят манзили:**

140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,  
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53  
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис  
институти ректори, и.ф.д., профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва  
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти  
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,  
профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод  
фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори, DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти, DSc

**А.М.Каримова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

<b>Mavluda Shuxratjon qizi Nishonova</b> Boshqaruv samaradorligini oshirishda sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanishning nazariy asoslari	150
<b>Askar Axrorovich Siddikov, Islomjon Umrzoq o‘g‘li Yovqochov</b> Yashil mehmonxona va restoranlar: ekologik boshqaruv va barqarorlik	154
<b>ИНВЕСТИЦИЯ</b>	
<b>Шохида Ильясовна Артикова, Дилноза Наврузовна Султонова</b> Реальные инвестиции как фактор повышения развития экономики страны	157
<b>МОЛИЯ, ПУЛ МУОМАЛАСИ ВА КРЕДИТ</b>	
<b>Xurshida Abdumalikovna Karjavova</b> Sug‘urta xizmatlari bozorini takomillashtirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yo‘llari	161
<b>Alisher Komilovich Baxadirov</b> O‘zbekistonda lizing oluvchilarni ijara muomalalari hisobining amaldagi holatini barqarorlashtirish yo‘llari	167
<b>Faridun Mustafoyevich Tursunov</b> Tijorat banklarida innovatsion masofaviy bank xizmatlarini tashkil etishning ahamiyatli jihatlari	172
<b>БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ</b>	
<b>Мамаюнус Каршибаевич Пардаев, Озода Мамаюнусова Пардаева, Севара Абдиназаровна Бабаназарова</b> Инсон ресурслари аналитикаси (таҳлили) фанининг вазифаларига оид фикрлар	177
<b>Tolmasjon Namoz o‘g‘li Qurbonov</b> “Yashil iqtisodiyot”ning iqtisodiy samaradorligini baholash tahlili	182
<b>Otabek Olimjonovich Sobirov</b> Boshqaruv hisobida sifat nazoratini tashkil etish va takomillashtirish	190
<b>Бобур Фарходович Боронов, Дилноза Гафуровна Худайназарова</b> Корхоналарда даромад ва харажатлар таснифини халқаро стандартлар асосида такомиллаштириш	192
<b>Sirojiddin Haydarovich Shermamatov</b> Uzoq muddatli aktivlar hisobi va auditini tashkil etishning muammo va istiqbollari	200
<b>ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА</b>	
<b>Азимжон Фаррухович Мустафоев</b> Нодавлат таълим ташкилотларида моддий харажатлар ҳисобини такомиллаштириш	205
<b>To‘lqin Mardiyev, Azizbek Gafurov</b> Qardosh bo‘lmagan tillarda iqtisodiy idioma va frazeologiyalarning leksik-semantik xususiyatlari	212
<b>Хилола Нематовна Очилова</b> Камбағалликни қисқартиришда олий таълим муассасаларининг ўрни ва аҳамияти	215
<b>ЭЪТИБОРГА МОЛИК МАСАЛАЛАР</b>	
<b>Мамаюнус Каршибаевич Пардаев</b> 1. Энг зарур тиббий ўғитлар. 2. Онкологлар энди мени кечиришмайди. бутун дунё топмаган дардимга, биргина мева даво бўлди!!	219

# МОЛИЯ, ПУЛ МУОМАЛАСИ ВА КРЕДИТ

Xurshida Abdumalikovna Karjavova – Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti  
“Raqamli iqtisodiyot” kafedrası dotsenti

## SUG‘URTA XIZMATLARI BOZORINI TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada sug‘urta xizmatlari bozorini takomillashtirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yo‘llari o‘rganilgan. Maqolada elektron sug‘urta polisini takomillashtirish jarayonlari bosqichma bosqich yoritib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** elektron sug‘urta, sug‘urta polisi, suniy intellekt, Big Data, sun‘iy aql-idrok (artificial intelligence), P2P-sug‘urtasi, tibbiy sug‘urta, raqamlashtirish, Internet, sug‘urta mukofoti, “Aqlli uylar”.

**Kirish.** Dunyoda sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan talab muntazam ravishda ortib bormoqda, buni global iqlimning o‘zgarishi, texnologik innovatsiyalarning rivojlanishi, kiber risklarning tobora avj olishi hamda pandemiya oqibatlarining yuzaga kelishi bilan tavsiflash mumkin. “Sug‘urta xizmatlari bozori tez sur‘atlarda rivojlanmoqda, bunga biznesning yangi yo‘nalishlari paydo bo‘layotgani, xizmat ko‘rsatish sohasiga yangi zamonaviy raqamli texnologiyalarning tatbiq etilayotganligi sabab bo‘lmoqda”. “Dunyoning taraqqiy etgan mamlakatlarida jon boshiga to‘g‘ri keladigan sug‘urta mukofoti miqdori 1106 evroni tashkil etib, yillik o‘zgarish surati o‘rtacha 131,2 foizga o‘smoqda”<sup>1</sup>. Bu ko‘rsatkichning o‘shish dinamikasini oshirish sug‘urta xizmatlarining ajralmas tasniflarini inobatga olish orqali faoliyat samaradorligini raqamli texnologiyalar asosida ta‘minlash, xususan, sug‘urta faoliyatini tashkil etish sifatini oshirish, sohada yangicha loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda sug‘urtalovchilarning raqobatbardoshligini ta‘minlashda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda mamlakat sug‘urta bozorida zamonaviy texnologiyalarni faol qo‘llashni tashkil etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy globallashuv sharoitida “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va chorvani sug‘urta qilish tizimini isloh qilish, alohida sug‘urta jamg‘armasini tashkil etish va unga 100 million dollarni jalb qilish, dehqon va fermerlarga sug‘urta mukofotining 50 foizini subsidiyalash tizimini joriy qilish”<sup>2</sup> talab etiladi. Mazkur talablarning bajarilishi milliy sug‘urta kompaniyalarining sug‘urta maydonini kengaytirish bilan bir qatorda xalqaro moliya bozorlariga integratsiyasini ta‘minlaydi hamda ulkan sug‘urta salohiyatini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Bugungi kunda mamlakatimiz sug‘urta faoliyatida aholiga sug‘urta xizmatlari ko‘rsatishni rivojlantirish, unda raqamli texnologiyalardan keng foydalangan holda sug‘urta xizmatlarining yangi turlarini joriy etish masalasi dolzarb hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Sug‘urta xizmatlari bozorini rivojlantirishning xususiyatlarini takomillashtirish doirasida ko‘plab xorijlik olimlar, jumladan, P. Rozenshteyn-Rodan, Balabanov I.T., Med‘nskiy V.G., Fatxutdinov R.A., Popov V.L., Shaxov V.V. kabi mutaxassislar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu olimlarning ilmiy ishlarida sug‘urta sohasida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash hamda ularni hayotga tatbiq etish bo‘yicha ko‘plab tavsiyalar ilmiy asoslangan. Mazkur olimlar sug‘urta xizmatlari bozorining muhim jihatlari bo‘yicha aniq tadqiqot ishlarini olib borgan.

O‘z navbatida, mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining tadqiqotlarida ham ushbu muammoni o‘rganishga e‘tibor qaratilmoqda. Masalan, A. Taniyev<sup>3</sup> ning ilmiy tadqiqotlarida

<sup>1</sup> <https://www.statista.com/statistics/976636/average-amount-spent-on-insurance-per-capita-in-europe-by-insurance-type/>

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 11.09.2023 yildagi PF-158-son “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6600413>

<sup>3</sup> Sug‘urta ishi o‘quv qo‘llanma i.f.n professor A.Taniyev S.: - 2022. -269 b.

sugʻurta sohasida innovatsiyalarni joriy etish hamda ularni amaliyotga tatbiq qilishning dolzarbligi yoritib berilgan. Shuningdek, iqtisodchi Umarov S.A.<sup>1</sup> oʻzining doktorlik dissertatsiyasida sugʻurta xizmatlari bozorini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rolini oshirishning dolzarbligi haqida koʻplab ilmiy izlanishlar olib borgan. Abduraxmonov I.X.<sup>2</sup>ning Sugʻurta nazariyasi va amaliyoti” deb nomlangan oʻquv qoʻllanmasida zamonaviy raqamli texnologiyalarning sugʻurta bozoriga tatbiq etilishi masalalari chuqur oʻrganilgan. Xalikulova G.T.<sup>3</sup> ning iqtisod fanlari boʻyicha falsafa doktori darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi avtoreferatida esa sugʻurta xizmatlari bozorida Big Data hamda bulut texnologiyalaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi ochib berilgan. Mazkur maqolani yozishda ushbu olimlarning qimmatli hamda ilmiy qarashlarini tahlil qilgan holda yangicha xulosa va takliflarni ishlab chiqishimizga asos boʻldi

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot jarayonda sugʻurta tizimini davlat tomonidan tartibga solish, uning infratuzilmasini rivojlantirish, sugʻurta xizmatlari bozorini rivojlantirish boʻyicha davlat siyosatining maqsadi, vazifalari va yoʻnalishlarini yoritish jarayonida sohadagi transformatsiya jarayonlarini hisobga olish, sugʻurta xizmatlarni takomillashtirishda raqamli texnologiyalarning rolini metodologik oʻrganish, bu borada mutaxassislar fikrini oʻrganish natijasida dialektik va tizimli yondashuv, qiyosiy va solishtirma tahlil, statistik yondashuv hamda guruhlash usullaridan foydalanildi hamda infratuzilmaning tarkibiy qismlarining rivojlanish yoʻnalishlarini belgilab berish yondashuvi asoslandi.

**Tahlil va natijalar.** Raqamli texnologiyalar dunyoda tobora katta ahamiyatga ega boʻlib bormoqda. Soʻnggi yillarda ularning rivojlanishi katta oʻzgarishlarni keltirib chiqardi. Bir tomondan, raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini qisqartirdi va soddalashtirdi. Ikkinchi tomondan, yangi texnologiyalar analitik maʼlumotlarni kengaytirdi va ularni qayta ishlashni osonlashtirdi, bu esa standart takliflardan shaxsiy takliflarga oʻtish va noyob tajribalarni yaratish imkoniyatlarini berdi. Hozirgi vaqtda deyarli barcha sohalardagi kompaniyalar oʻz faoliyatlarida oʻzgarishlarga muhtoj, chunki yangi texnologiyalar, innovatsiyalar va isteʼmolchilarning xulq-atvori eski biznes modellarni tubdan oʻzgartirib yubormoqda. Iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayoni sugʻurta kompaniyalari faoliyatiga ham sezilarli taʼsir koʻrsatmoqda.

Raqamli transformatsiya davrida anʼanaviy ofis kompaniyalari oʻrnini platforma kompaniyalar egallamoqda, shuningdek bu jarayonlarda ularning biznes modellari shakllanmoqda. Mobil texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar, bulutli xizmatlar, integratsiyalashgan qurilmalar, katta maʼlumotlar va turli xil tahlil vositalari inson kapitali salohiyatiga taʼsir koʻrsatmoqda. Kompaniyalar raqamli innovatsiyalardan oʻzlarining amaldagi va raqobatdosh afzalliklarini qayta koʻrib chiqish, mehnat unumdorligini oshirish, mijozlarga qoʻshimcha qimmat baxsh etish va daromadlarini koʻpaytirish uchun foydalanmoqda. Sugʻurta kompaniyalari raqamli iqtisodiyotning asosiy innovatsiyalariga katta qiziqish bildirmoqda. Biznes jarayonlari va mexanizmlarni soddalashtirish maqsadida ular avtomatlashtirish, sunʼiy intellekt, chat-botlar, maʼlumotlarni bulutli qayta ishlash kabi texnologiyalardan faol foydalanmoqda.

Raqamli iqtisodiyotga oʻtish jarayonida sugʻurta kompaniyalarining asosiy maqsadi – iqtisodiyotni raqamlashuvi natijasida sugʻurtalanuvchilarning oʻzgargan ehtiyojlarini qondirishdan iboratdir. Isteʼmolchilar sugʻurta xizmatlari haqida oddiy, qulay, maʼlumotlarni istalgan vaqtda olish, aniq va tushunarli maʼlumotlarga ega boʻlishni istashadi. Sugʻurta kompaniyalari esa qisqa vaqt ichida foydani oshirishga va mahsulot tannarxini kamaytirishga erishadi. Bu esa kelajakda sugʻurta kompaniyalariga innovatsion sugʻurta mahsulotlarini joriy etish imkoniyatini beradi. Muvaffaqiyatli rivojlangan sugʻurta kompaniyalari oʻzlarini yangi sohalarda sinab koʻrishmoqda va yangi sugʻurta xizmatlarini yaratishmoqda. Bunda asosiy vazifa birinchi navbatda oʻzi uchun likvid bozorni shakllantirishdir.

<sup>1</sup> Umarov S.A. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida Oʻzbekistonda sugʻurta faoliyati rivojlanishini boshqarish. iqt.f.d.diss... – T.: 2012. – 384 b.

<sup>2</sup> Abduraxmonov I.X. Sugʻurta nazariyasi va amaliyoti. Oʻquv qoʻllanma. –T.: Iqtisod-Moliya, 2018. – 415 b.

<sup>3</sup> Xalikulova G.T. Sugʻurta tizimi va uni amal qilish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari boʻyicha f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: - 2019. -62 b.

Hozirgi vaqtda bir qator hodisalar (fenomenlar) sug‘urta tarmoqlarini raqamlashtirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida namoyon bo‘lmoqda, ular raqamli iqtisodiyotda shakllangan terminologiya doirasidagi internet bilan ta‘minlash, shaxsiylashtirish va raqamlashtirish sifatida belgilanadi, ularning xususiyatlari 1-jadvalda keltirilgan.

**Sug‘urta xizmatlari bozorini raqamlashtirishning asosiy yo‘nalishlari<sup>1</sup>**

Yo‘nalish	Ta‘rif	Qo‘llaniladigan raqamli texnologiyalar	Sug‘urta kompaniyasining iste‘mol auditoriyasi
Internet bilan ta‘minlash	Sug‘urta kompaniyasining biznes jarayonlarida internetdan foydalanish	Yangi ishlab chiqarish texnologiyalari; simsiz aloqa texnologiyalari; bulutli texnologiyalar (Cloud texnolog))	Tashqi – sug‘urtalanuvchilar; Ichki – xodimlar, sug‘urta agentlari
Individuallashtirish	Sug‘urtalanuvchilar va sug‘urta obyektlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning eng keng to‘plamini olish asosida individual sug‘urta takliflarini (tarif bo‘yicha, risklar jamlanmasi bo‘yicha va boshqa shartlarga muvofiq) ishlab chiqish	Katta ma‘lumotlar (Big data); Yangi ishlab chiqarish texnologiyalari; simsiz aloqa texnologiyalari	Tashqi – sug‘urtalanuvchilar (shu jumladan solohiyatli mijozlar ham)
Raqamlashtirish	Sug‘urta kompaniyasining biznes jarayonlarida raqamli (raqamlashgan) texnologiyalardan foydalanish	Yangi ishlab chiqarish texnologiyalari; simsiz aloqa texnologiyalari	Ichki – xodimlar; tashqi – sug‘urtalanuvchilar

Sug‘urta taklifini shaxsiylashtirish quyidagilardan iborat:

Sug‘urtalanuvchilar va sug‘urta obyektlari to‘g‘risida to‘plangan ma‘lumotlar miqdorining ko‘payishi orqali shaxsiy risklarni baholash; sug‘urtalanuvchining talabiga asosan individual taklifni tayyorlash.

Sug‘urta bozorida raqamlashtirish deganda sug‘urta kompaniyasining biznes jarayonlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish tushuniladi. Ushbu tushuncha bilan bir qatorda “biznes jarayonlarini raqamlashtirish” atamasidan ham foydalanish mumkin.

Ko‘pincha raqamlashtirish jarayonida yangi ishlab chiqarish va simsiz texnologiyalardan foydalaniladi. Hozirgi vaqtda sug‘urta kompaniyalarida quyidagi biznes jarayonlari raqamlashtirilmoqda: buxgalteriya hisobi va hisobotlar, shartnomani rasmiylashtirish oldidan sug‘urtalanuvchilarning risklarini baholash jarayoni, sug‘urta xizmatlarini sotish va da‘volarni ko‘rib chiqish jarayonlari.

Milliy sug‘urta bozorining rivojlanishi raqamli iqtisodiyot texnologiyalarining sug‘urtaga ta‘sir ko‘rsatadigan texnologiyalarni joriy etishiga bog‘liqdir, asosiysi bu texnologiyalar uning iqtisodiy mohiyatini o‘zgartirmaydi. Raqamli texnologiyalardan sug‘urta faoliyatida foydalanish quyidagi samarali natijalarni beradi:

- sug‘urta faoliyatining samaradorligi va rentabelligi oshadi;
- notijorat va tijorat sug‘urtasining o‘zaro uyg‘unlashuvi yuz beradi (P2P – sug‘urtasi);
- sug‘urta munosabatlarining ijtimoiylashuvi ta‘minlanadi;
- yangi sug‘urta xizmatlari va mahsulotlari paydo bo‘ladi;
- sug‘urta sohasidagi mehnat munosabatlari o‘zgaradi (quyi va o‘rta bo‘g‘inlar menejerlari).

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

Zamonaviy texnologiyalar iqtisodiy sohalarning barcha tarmoqlarini, shu jumladan etarli darajada konservativ bo‘lgan sug‘urta tarmoqlarini ham raqamlashtirish imkonini beradi. Biroq, shuni alohida ta’kidlash kerakki, raqamlashtirishga tez va to‘liq o‘tish nafaqat yangi yuqori texnologiyalar, balki sug‘urta bozorini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlariga ham bog‘liq. Sug‘urta biznesini yanada takomillashtirish maqsadida, kichik va yirik moliyaviy texnologiya kompaniyalari mijozlarga ko‘rsatiladigan xizmatlarni yaxshilash uchun “sun‘iy intellekt” (artificial intelligence) va raqamli texnologiyalardan keng foydalanmoqda.

Hozirgi vaqtda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va iqtisodiyot tarmoqlariga jadallik bilan kirib borishi sug‘urta kompaniyalariga sug‘urta polislarini tuzishda an’anaviy usul, ya’ni sug‘urta agentlaridan foydalanish bilan birga elektron shakldagi raqamli texnologiya vositalaridan foydalanish imkoniyatini bermoqda. Sug‘urta faoliyatini yanada rivojlantirish uchun, avvalo, innovatsion texnologiyalarga asoslangan elektron sug‘urta polislarini sug‘urta tizimiga joriy etish maqsadga muvofiq.

Chunki elektron sug‘urta polisini joriy etish orqali sug‘urtalash jarayoni kompleks raqamlashtiriladi, sug‘urtalanuvchining sug‘urtalash jarayonlariga sarflanadigan vaqti tejab qolinadi.


Elektron sug‘urta polisini shakllantirish jarayonlari 1-rasmda tasvirlangan. Undan ko‘rinib turibdiki, barcha ishlar raqamlashtirilgan tarzda amalga oshiriladi va mijoz polisni olish uchun kompaniyaga borishi yoki sug‘urta agentini chaqirishi shart emas. **(pastga qarang 1-rasm).**

1-rasmda mijoz sug‘urta kompaniyasi veb-saytidagi shaxsiy kabinet orqali sug‘urta mahsulotini tanlaydi va elektron sug‘urta polisi uchun buyurtma beradi. Shundan so‘ng sug‘urta kompaniyasi axborot tizimi tomonidan barcha ma’lumotlar to‘g‘ri ekanligi tekshiriladi va mijozdan elektron to‘lov tizimlari orqali sug‘urta mukofotini qabul qilib olgach, sug‘urta mukofoti to‘langanligi hamda yangi elektron sug‘urta polisi tuzilganligi haqida tegishli bo‘limlarga va mijozga SMS yoki e-pochta orqali xabar yuboriladi.

Fikrimizcha, milliy sug‘urta bozoriga elektron polislarining joriy etilishidagi afzalliklar quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

sug‘urta shartnomalarini tuzishda hujjat aylanishining soddalashishi;

sug‘urta mahsulotlarini sotish xarajatlarining qisqarishiga olib keladi, chunki elektron polislar sug‘urta kompaniyasi tomonidan bir marta beriladi va polisning muddati uzaytirilganda faqat ma’lumotlar bazasidagi ma’lumotlar o‘zgaradi, elektron polisni ishlab chiqish xarajati qayta talab etilmaydi.



1-rasm. Raqamli sug‘urta polisini tuzish jarayonlari<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

sugʻurta vositachi va sotuvchilari ustidan nazoratni yoʻlga qoʻyish osonlashadi, yaʼni elektron koʻrinishda shartnomaning tuzilganlik fraqamli texnologiyaini nazorat qilish osonroq boʻladi va sugʻurta polislariga sarflanuvchi xarajatlarini tejab qolish imkonini beradi;

sugʻurta shartnomasining tuzilganligi toʻgʻrisida tezkor axborotlar olish mumkin. Bugungi kunda baʼzan tuzilgan sugʻurta shartnomasi toʻgʻrisidagi axborotlar sugʻurta kompaniyasigacha etib kelishi yarim yil va hatto undan koʻp vaqt oʻtgach amalga oshishi mumkin. Elektron polislarining joriy etilishi sugʻurta kompaniyasiga tuzilgan har bir polis haqida tezkor maʼlumotlar olish, muddati oʻtgan polislarini nazorat qilish imkonini beradi;

sugʻurta qilinuvchi tomonidan polis uchun toʻlovning oʻz vaqtidaligini nazorat qilish va sugʻurta vositachisi tomonidan sugʻurta kompaniyasiga pullarning oʻtkazilishini tezlashtiradi;

asosiy sotuvlar kanali sifatidagi internet-sotuvlardan foydalanish sugʻurta polislarini sotish xarajatlarini sezilarli darajada qisqartirishga olib keladi.

Maqolada milliy sugʻurta kompaniyalariga raqamli texnologiyaga asoslangan quyidagi zamonaviy sugʻurta mahsuloti va xizmatlarini ishlab chiqishlarini taklif etamiz:

“Aqlli uylar” uchun sugʻurta xizmatlari. “Aqlli uylar”ni sugʻurta qilish oddiy uylarga nisbatan risk kamligi, sugʻurta hodisasi yuz berganda zararlarning kamligi bilan ajralib turadi.

Chunki “Aqlli uylar”da sensorli, kuzatuv va telematika tizimlaridan foydalanilganligi sababli turli noxush vaziyatlar yuz berishi ehtimoli boʻlgan holatlarda yoki yongʻin yuz berganda, suv toshganda va boshqa holatlarda tegishli tashkilotlarga xabar yuboriladi. Bu esa oʻz navbatida, moddiy zararlarni 60-70% gacha kamaytirishga xizmat qiladi. Shu boisdan “Aqlli uylar”ni sugʻurtalashda sugʻurta mukofoti oddiy uylarnikiga nisbatan kamroq toʻlanishi lozim.

“Aqlli uylar”ni sugʻurtalashda sugʻurta mukofotlarining kamaytirilishi zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanganligi uchun ragʻbatlantiradi va aholining innovatsion texnologiyalarga mijozlarni qiziqishini yanada uygʻotadi.

“Aqlli avtomashinalar”ni sugʻurta qilish. Bunda, sugʻurta kompaniyasi tomonidan sugʻurtalangan avtomashinaga maxsus sensorli datchiklar oʻrnatiladi va ushbu datchiklar orqali haydovchining yoʻl harakati qoidalariga qanchalik rioya etayotganligi aniqlanadi. Agar sugʻurta kompaniyasi va mijoz oʻrtasida oʻzaro kelishilgan va belgilangan muddatda haydovchi hech qanday sugʻurta hodisasi yuz beruvchi holatlarga yoʻl qoʻymasa, unda sugʻurta kompaniyasi tomonidan ushbu sugʻurtalanuvchiga sugʻurta pulining bir qismi qaytarib beriladi yoki keyingi sugʻurtalash jarayonlarida sugʻurtalanuvchi maxsus chegirma qilish orqali ragʻbatlantiriladi.


Tibbiy sugʻurtalash. Innovatsion texnologiyalarni qoʻllash, yaʼni turli insonlar tomonidan «Aqlli soatlar» taqilishi, uydagi havo harorati va namlikni nazorat qiluvchi sensorli qurilmalardan foydalanish tibbiy sugʻurta tizimida tubdan takomillashtirishga olib keladi.

Mazkur maqolada sugʻurta kompaniyasiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish asosida kompaniya boshqaruvida yangi raqamli texnologiya vositalaridan foydalanish jarayonlarini takomillashtirish uchun sugʻurta kompaniyasi innovatsion faoliyatini tashkil etish modelini tahlil qilib oʻtamiz (2-rasm).

Ushbu modelda sugʻurta kompaniyasi innovatsion faoliyatini tashkil etishdan maqsad kompaniyaning raqobatbardoshligini taʼminlash boʻlib, ushbu maqsadga erishish uchun qulay sharoit yaratish, innovatsion imkoniyatni oshirish va risklarni kamaytirish singari vazifalarni belgilab oladi. Natijada sugʻurta kompaniyasi raqamli texnologiyaivlari, daromadi oshadi, ijtimoiy holati yaxshilanadi.

Mazkur sugʻurta kompaniyasi innovatsion faoliyatini tashkil etish modelini kompaniya faoliyatiga tatbiq etish uchun, avvalo, sugʻurta kompaniyasi innovatsion faoliyatni rivojlantirish boʻyicha muhim yoʻnalishni tanlab olishi hamda bevosita va bilvosita taʼsir etuvchi omillar eʼtiborga olinishi lozim.

Yakunda aytish mumkinki respublikamizda sugʻurta xizmatlari bozorini takomillashtirishda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbolli ahamiyatga ega boʻlib, bu istiqbol sugʻurta xizmatlari bozori hajmining kattaligiga bogʻliq. Milliy sugʻurta kompaniyalari faoliyatini kompleks avtomatlashtirishda raqamli texnologiyadan foydalanish va yangicha sugʻurta mahsulotlarini yaratish orqali sugʻurta faoliyati axborotlarini toʻplash, saqlash,



2-rasm. Sug'urta kompaniyasi innovatsion faoliyatini tashkil etish modeli<sup>1</sup>

qayta ishlash va uzatish jarayonlarini tezlashtirish bilan birga mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati ham oshiriladi.

**Xulosa va takliflar.** “Milliy bozorni rivojlangan davlatlar bozorlari darajasiga yetkazish va global bozorda o'z o'rnini egallash uchun bozor tuzilmasini yanada rivojlantirish va mukammallashtirish muhimligini ko'rsatmoqda. Bunda sug'urta bozorining malakali vositachilari sifatidagi sug'urta brokerlari va agentlari ishini yanada faollashtirish, shuningdek, sug'urta bozorining tajribali mutaxassislari bo'lgan syurveerlar, adjasterlar, aktuariylar va yordam xizmatlarini tashkil etish hamda rivojlantirish kelajakda ijobiy natijalar beradi.

Bizning nazarimizda, O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va tezkor rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari quyidagicha:

Sug'urta sohasidagi qonunchilik bazasini yaxshilash, xususan, xalqaro tashkilotlarning me'yorlari va maslahatlarini, shu bilan birga ushbu sohadagi eng ilg'or global tajribalarni bosqichma-bosqich joriy qilish;

Sug'urta faoliyatini tartibga solish tizimini tashkiliy jihatdan takomillashtirish, tartibga solish va ehtiyotkorlik bilan nazorat qilishning samarali usullarini qo'llash orqali sug'urta bozorining ishonchliligi va mustahkamligini ta'minlash;

Sug'urta bozori ishtirokchilarining kapital darajasini, to'lovga layoqatligini va moliyaviy mustahkamligini oshirish, ularning aktivlari sifatini yaxshilash, shuningdek, sug'urtalovchilarning investitsiya faoliyatini kengaytirish;

Sug'urta brokerlari ishini jonlantirish, sug'urta agentlari faoliyat tizimini rivojlantirish, bank-sug'urta mexanizmlarini joriy qilish, shu bilan birga sug'urta bozori mutaxassislarning rolini kuchaytirish orqali bozor infratuzilmasini kengaytirish va mustahkamlash;

Sug'urta xizmatlari foydalanuvchilari va boshqa ishtirokchilar huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish, aholining sug'urtaga oid bilimligini va ishonchini oshirish, sug'urta bozorining ochiqligi va ravshanligini ta'minlash;

Yangi innovatsion sug'urta mahsulotlarini taqdim etish va talab yuqori bo'lgan an'anaviy

<sup>1</sup> Xalikulova G.T. Sug'urta tizimi va uni amal qilish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: - 2019. -92 b.

mahsulotlarni takomillashtirish orqali sug'urta xizmatlarining hajmini, turlarini ko'paytirish va sifatini yuksaltirish;

Sug'urta faoliyatini tashkil qilish va tartibga solishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, elektron sug'urta xizmatlarini faol joriy qilish va rivojlantirish;

Sug'urta sohasi mutaxassislarini tayyorlash, qayta o'qitish va malakasini oshirish tizimini yaxshilash, zamonaviy ta'lim usullarini qo'llash, ilmiy-tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlash;

Milliy sug'urta bozorining ijobiy obro'sini shakllantirish va yuqori darajada saqlash, uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, shu jumladan milliy sug'urta bozorini xalqaro va xorijiy bozorlar bilan birlashtirish orqali rivojlantirish zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 11.09.2023 yildagi PF-158-son “O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6600413>
2. Sug'urta ishi o'quv qo'llanma i.f.n professor A.Taniev S.: - 2022. -269 b.
3. Umarov S.A. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida O'zbekistonda sug'urta faoliyati rivojlanishini boshqarish. iqt.f.d.diss... – T.: 2012. – 384 b.
4. Abduraxmonov I.X. Sug'urta nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-Moliya, 2018. – 415 b.
5. Xalikulova G.T. Sug'urta tizimi va uni amal qilish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: - 2019. -92 b.
6. Chrysovalantis Gaganisa, Iftekhar Hasanb, Panagiota Papadimitrie, Menelaos Tasioue (2019). National culture and risk-taking: Evidence from the insurance industry. Journal of Business Research №97, r 104–116
7. Казакова А.А. (2012) Анализ факторов и перспективы развития инвестиционно-страховых продуктов в России / Казакова А.А // Финансы и кредит. - № 26(506). – 1 п.л.
8. <https://www.statista.com/statistics/976636/average-amount-spent-on-insurance-per-capita-in-europe-by-insurance-type/>

<b>Х.Каржавова</b>	<b>Kh.Karjavova</b>
<b>Пути использования современных технологий для улучшения рынка страховых услуг</b>	<b>Ways of using modern technologies to improve the market of insurance services</b>
<b>Аннотация.</b> В данной статье исследуются пути использования современных технологий для совершенствования рынка страховых услуг. В статье поэтапно описаны процессы совершенствования электронного страхового полиса.	<b>Abstract.</b> This article explores ways to use modern technologies to improve the insurance services market. The article describes the processes of improving the electronic insurance policy step by step.
<b>Ключевые слова:</b> электронное страхование, страховой полис, искусственный интеллект, Big Data, искусственный разум, P2P-страхование, медицинская страховка, цифровизация, Интернет, страховая премия, «Умные дома».	<b>Keywords:</b> electronic insurance, insurance policy, artificial intelligence, Big Data, artificial intelligence, P2P-insurance, medical insurance, digitization, Internet, insurance premium, “Smart houses”.

**Alisher Komilovich Baxadirov** – O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi dotsent

**O'ZBEKISTONDA LIZING OLUVCHILARNI IJARA MUOMALALARI HISOBINING AMALDAGI HOLATINI BARQARORLASHTIRISH YO'LLARI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekistonda lizing operatsiyalarining buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarga ta'siri, lizing oluvchilarning hisobot yuritish tizimini takomillashtirish, barqarorlashtirish yo'llari hamda xalqaro tajriba va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablariga muvofiq hisob yuritish usullarini joriy etish masalalari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** lizing, ijara muomalalari, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, MHXS, xalqaro tajriba, hisobot tizimi, lizing operatsiyalari.

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

14.03.2025 йилда теришга берилди. 25.03.2025 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт  
табағи 13,87. Адади 100 нусха. Буюртма № 0012А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.